

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi hamda
“Jadid” adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy
gazetasi tahririyatining
qo‘shma qaroriga 1-ilova

Talabalar o‘rtasida
“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”
ijodiy ishlar tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida
NIZOM

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom talabalarda ijodiy fikrlash va badiiy tasavvurni kengaytirish, bu orqali kelajagimiz egalari sanalgan yoshlarda Vatanga mehru muhabbat va sadoqatni kuchaytirish, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi g‘oyalarini keng targ‘ib etish, Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida islohotlar sarhisobi va tahlilini ijodkorona tavsiflash, milliy qadriyat va an’analar ruhini badiiy talqinda targ‘ib etish maqsadida tashkil etilayotgan **“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”** ijodiy ishlar tanlovini *(bundan keyingi o‘rinlarda Tanlov deb yuritiladi)* o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “Jadid” adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy gazetasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

3. Tanlovda oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etadi.

4. Tanlov quyidagi yo‘nalishda o‘tkaziladi:

– **“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida yozilgan she‘r, hikoya, esse, maqola** *(daftar varag‘ining 100 qatoridan oshmagan holda, xatosiz, husnixat bilan qo‘lda yozilgan bo‘lishi shart).*

II bob. Tanlovga hujjatlarni taqdim etish va rasmiylashtirish

5. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan har bir nomzod o‘z ijodiy ishini, shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi, yashash manzili, o‘quv dargohi va yo‘nalishini ko‘rsatgan holda taqdim etishi shart.

6. Ijodiy ishlar 2026-yil 5-iyuldan boshlab 2026-yil 1-avgust kuniga qadar (shu kuni ham) tahririyat manzili (Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi 69-uy)ga pochta orqali yoki Telegramdagi bot manziliga yuborilishi kerak. Belgilangan muddatdan so'ng topshirilgan ishlar ko'rib chiqilmaydi.

7. Tanlovga taqdim etiladigan asarlar avval bosma va elektron nashrlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinmagan bo'lishi lozim.

III bob. Tanlov g'oliblarini aniqlash va taqdirlash

8. Tanlov g'oliblarini aniqlash maqsadida taniqli shoir, yozuvchilar, malakali pedagog-olimlar, adabiyot va san'at sohasi vakillaridan iborat hakamlar hay'ati tuziladi.

9. Ijodiy ish hakamlar hay'ati tomonidan 100 ballik tizim bo'yicha quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

– mazmun-mohiyati, milliy qadriyat va an'analarga mosligi hamda badiiy ifodasi – 30 ball;

– ijodiy yondashuv va o'ziga xoslik – 20 ball;

– til va uslub (lug'at boyligi, grammatik to'g'rilik, badiiy vositalardan foydalanish) – 20 ball;

– ezgulikka undashi, zamonaviy dunyo bilan hamohangligi – 20 ball;

– noan'anaviy yondashuv – 10 ball.

10. Ijodiy ishlarni baholash jarayonida ko'chirmakashlik (yoki sun'iy intellekt ishtiroki) aniqlangan taqdirda, material tanlovdan olib tashlanadi va media vositalar orqali mazkur ish plagiat (adabiy o'g'rilik) ekanligi e'lon qilinadi.

11. Tanlov hay'ati tomonidan tanlov natijalari bo'yicha qabul qilingan qaror muhokama qilinmaydi.

12. Tanlov g'oliblari diplom, kitob jamlanmasi va quyidagicha pul mukofoti bilan taqdirlanadi:

1 ta birinchi o'rin – 25 000 000 (yigirma besh million so'm);

2 ta ikkinchi o'rin – 10 000 000 (o'n million so'mdan, jami: 20 mln so'm);

3 ta uchinchi o'rin – 5 000 000 (besh million so'mdan, jami: 15 mln so'm);

15 ta rag'batlantiruvchi o'rin – 2 000 000 (ikki million so'mdan, jami: 30 mln so'm).

13. Tanlov natijalari “Mustaqillik kuni” bayrami arafasida e’lon qilinadi.

G‘oliblarning ijodiy ishlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sahifalarida hamda “Jadid” gazetasi va media tarmoqlarida chop etiladi.

14. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan sentabr oyining oxirgi o‘n kunligida g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash uchun tantanali taqdirlash marosimi o‘tkaziladi hamda “Jadid” adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy gazetasi tomonidan o‘quv dargohi kutubxonasiga 100 ta badiiy, ilmiy-ommabop kitob taqdim etiladi.

15. Tanlovni o‘tkazish va g‘oliblarni taqdirlash bilan bog‘liq barcha xarajatlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari va homiylar hisobidan, kitoblarni taqdim etish “Jadid” adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy gazetasi tomonidan belgilangan tartibda qoplanadi.

IV bob. Yakuniy qoidalar

16. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan materiallar bo‘yicha izoh yoki sharh berilmaydi hamda ular egalariga qaytarilmaydi.